

**THE CONCEPT OF JUSTICE IN THE TEACHINGS OF EASTERN THINKERS****Zafar Adilov**

Associate Professor, (PhD)

head of the Department of General Professional Sciences Ma'mun University

Zafaradilov68@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Human, justice, equality, truth, correctness, science, knowledge, peace and prosperity, politics, governance.

Received: 20.07.25**Accepted:** 21.07.25**Published:** 22.07.25

Abstract: This article analyzes the concept of justice in the governance of the state and society of thinkers, its role in human and social relations. It also presents an analytical approach to the question of whether the ideas of thinkers can serve as a spiritual and scientific basis for state and social reforms.

SHARQ MUTAFFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASI**Zafar Adilov**

Ma'mun universiteti Umumkasbiy fanlar

kafedrasi mudiri dotsent, f.f.d., (PhD)

Zafaradilov68@gmail.com

Toshkent O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Inson, adolat, tenglik, haqiqat, to'g'rilik, ilm, bilim, tinchlik va faravonlik, siyosat, boshqaruv.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharq mutaffakkirlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi adolat konsepsiyasi, uning inson va jamiyat munosabatlarida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, sharq mutaffakkirlari g'oyalarining davlat va jamiyat islohotlarga ma'naviy va ilmiy asos bo'la olishi xususida tahliliy yondashuv namoyon etiladi.

КОНЦЕПЦИЯ СПРАВЕДЛИВОСТИ В УЧЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ**Зафар Адиллов**

доцент, (PhD), заведующей кафедрой

Общепрофессиональных наук

Университета Мамуна

Zafaradilov68@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Человек, справедливость, равенство, истина, корректность, наука, знание, мир и процветание, политика, управление.	Аннотация: В статье анализируется концепция справедливости в управлении государством и обществом мыслителей, её роль в человеческих и общественных отношениях. Также представлен аналитический подход к вопросу о том, могут ли идеи мыслителей служить духовной и научной основой государственных и общественных реформ.
------------------------	---	--

Kirish. Oʻrta asrlarda butun jamiyat siyosiy yetakchini “odil podshoh” sifatida koʻrishni orzu qilishgan. Az-Zamaxshariy ham davlat va hokimiyat boshligʻini adolatli, fuqarolar osoyishtaligini taʼminlashga intiluvchi shaxs sifatida boʻlishligini istaydi. U davlat hokimiyati boshligʻinig faoliyatini sharqona anʼanaga muvofiq tahlil qiladi. U yozadi: “Odil podshoh Allohning yordami bilan himoyalangan va Allohning koʻzi oʻsha odil podshohdadir”. Shu oʻrinda Ogahiy fikricha, kishiga yuqori mansabni odil shoh beradi. Shohga shohlik mansabini kim beradi Uningcha, shohga bu mansabni Hudo beradi. Koʻrinadiki, Ogahiy oʻylab-oʻylab jamiyatdagi sinfiy qarama qarshilikning sababini yecholmay, oxiri iloji yoʻq yoʻlni tanlaydi. Lekin Ogahiyning bu yoʻli bir yoqlama boʻlsa ham, gumanizm ruxi bilan sugʻorilgan, aql mashali bil ritilgan yoʻldir. U jamiyatdagi qarama-qarshi guruhlarini sinf sifatida koʻra bilmaydi, koʻpgina Shaq mutaffakkirlari singari, maʼrifatparvar shohning tarafdori boʻlib chiqadi .

Ogahiy mutaffakkir shoir sifatida fikr yuritar ekan, mamlakatni, mulkni, xalqni saqlovchi kishilar dunyo ishlaridan, mamlakat ichkarisidagi hodisalardan xabar dor kishilar boʻlishini, uzoqni koʻra biladigan, ogoh kishilar boʻlishini taʼkidlaydi. Agar mamlakatni, mulkni, davlatni saqlovchi kishilar ogoh kishilar boʻlsa, shohning eʼtibori oshadi, u dunyo-bu dunyo obroʻyi baland boʻladi:

Mulki millatga emin oʻlsa agar ogohlar,

Ikki olam obroʻyini hosil etmay shohlar .

Adabiyotlar tahlili va metod. Maqolada prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Milliy tarakkiyot yulimizni katʼiyat bilan davom ettirib, yangi boskichga kutaramiz” nomli asari, nutq va maʼruzalaridan hamda I.A. Karimovning “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asari, Mahmud az-Zamaxshariyning “Rabiʼ ul-abror va nususul axbor”. (“Yaxshilar bahori va xabarlar matnlari”). J. 3. Bagʻdod: 1975., “Nozik iboralar”. – T.: Kamalak, 1992., Amir Temurning Temur tuzuklari.- T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashr., 1996., Ziyodulla Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiy- huquqiy tadqiqot). Ikkinchi toʻldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. va I.Moʻminov. Amir Temurning Oʻrta Osiyo tarixida tutgan oʻrni va roli. - T.: FAN, 1993.,

Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. – Т.: Адолат, 1997., Огоҳий абадияти. Ал-Хоразмий номли Урганч давлат университети. Хоразм Маъмун академияси. – Т.: Ўзбекистон. 1999., Огоҳий. Асарлар, VI жилдлик, 2 жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972., Сафарбоев М. Муҳаммад Ризо Огоҳийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари.//Қаранг: Ўзбек фалсафаси тарихи (III-жилд).Тошкент: “Мухаррир” нашриёти, 2020., мақола, kitob va darsligidan hamda internet saytlardan foydalanilgan. Foydalanilgan materiallar maqolaning ilmiylikini oshirish uchun xizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik va vorisiylik va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. Davlat tuzilishi va boshqarish shakllarida vorislik muammosi alohida o‘rin tutadi. Vujudga kelgan har qanday davlat o‘zida yoki davlatning progressiv elementlarini saqlagan holda vujudga keladi. Bu muammo mutaffakir shoirning nazaridan chetda qolmadi. Ogahiy fikricha, davlatning mustahkam bo‘lishi uchun shohga yoki davlat a‘zolari, hukumat arboblari lozim yoki davlat ishlarini olib borishda oldindan tajribasi bor kishi–lar kerak. Chunki ular mamlakatni idora qilishda shohga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi, oqilona maslahatlar bera olishi mumkin. Ana shunda shohda “davlat qaeri” mahkam bo‘ladi yozsa shohning taxtdan ag‘darilishi hech gapmas:

Vah nechuk mahkam bo‘lur ul shahga davlat qasrikim,

Bo‘lmas arkoni oning qo‘xna davlatxohlar.

Ogahiy davlatni boshqarishda shohga yordamchi bo‘ladi deb olimlarni yozuvchilarni, shoiralarni, san’atkorlarni, tabiblarni, xattotlarni, miroblarni va oliy martabali kishilarni ko‘rsatadi. Uningcha, shoh atrofiga dono kishilar ko‘p to‘plansa, shoh ma’rifatparvar, adolatli bo‘ladi. Shoh adolatli bo‘lsa, mamlakatda farovonlik hukm suradi. Davlatni boshqarishda past himmatli, johil toifa odamlari ishga yordamchi bo‘la olmaydi:

Past himmat johili nav’ davlat o‘lmas dastyor,

Shahga lozimdur necha donoyi oliy johlar.

Bundan tashqari u «odil podshoh» amal qilish lozim bo‘lgan jihatlarni ko‘rsatishga xarakat qiladi. Uning fikricha, hokimiyat sub’ekti hisoblangan shaxs o‘z faoliyatida haqiqat va adolat prinsiplariga rioya etishligi shart. U yozadi: «Haqiqat va adolat bilan to‘g‘ri siyosat yurgizmagan har bir rahbar va boshliq qattiq azob-uqubat va baloga giriftor bo‘lur».

Davlat boshqaruvi islomiy shariat orqali amalga oshiriladigan jamiyatlarda davlat xokimiyati boshlig‘i va uning faoliyatiga ilohiy xususiyatlarni bog‘lab talqin etishlar keng yoyilgan. Jumladan, o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari qarashlarida “Sulton Allohning yerdagi soyasi” kabi tushunchalar mavjud bo‘lgan. Va bu tushunchalar hosilasi sifatida siyosiy yetakchi va uning faoliyatiga nisbatan oliy axloqiy qadriyatlar shakllangan. Ularning yashash

tarziga, xarakter xususiyatlariga taqlid qilish kabi holatlar vujudga kela boshlagan. Alloma az-Zamaxshariy xam ularga taqlid qilish va ergashishga targ'ib qiladi: «Podshohlaringizning ezgu amallariga ergashinglar, fazilat ahlidan o'z hayot turmushlaringizda yordam so'ranlar».

Yuqorida bayon qilingan xislatlarga ega bo'lgan Abu-l-Qosim az-Zamaxshariy faqirona hayot kechirdi. U o'zining butun harakatlarini ilm yo'lida sarf etishga tayyor edi. Hayotning qiyinchiligi, kulfatlari va buning ustiga nogironligi bu buyuk zakovat egasining irodasini bukolmadi. U hayotning har bir qiyinchiligiga, azoblariga, kambag'alligu, faqirona hayot tarziga bardosh bera oldi. Biroq, ba'zan u bu qiyinchiliklardan ruhan ezilardi. Bugungi kuni kechagisidan yaxshi bo'lmayotganligidan afsuslangan az-Zamaxshariy: «Tunu kunni o'tkazaman-u, lekin bugungi kunim kechagidan yaxshiroq bo'lmayotir, chunki zamona kundan kunga halokatga tomon bormoqda, shunday ekan kechagi kun bugungidan a'loroq, bugungi esa ertangidan yaxshiroqdir», - deydi.

Natijalar. Az-Zamaxshariy ba'zan ilmiy faoliyatini taraqqiy qildirmoqchi bo'ladi, buning uchun ko'pincha mablag' yetishmaydi. Ko'p azmu qarorlarini hayot qiyinchiliklari va mashaqqatlariga qurbon qiladi. Bu to'g'rida uning o'zi shunday deydi: “qiyinchiligu mashaqqatlar hujumi azmu qaror va niyatlarni chalkashtirib, buzib yuboradi” .

Az-Zamaxshariy va Nizomulmulk dunyoviy davlat qurish va uni boshqarishda vazir faoliyatiga alohida e'tibor qaratganlar. Davlatning mavjudligi va uning amal qilish mexanizmini shakllantirishda uning o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlanadi. Az-Zamaxshariy ham davlatda vazirning o'rni juda muhim ekanligini ta'kidlaydi: “Har bir vazir, - deb yozadi, - qaychi misolidir (agar qaychining bir tayanch tomoni bo'lmasa, ikkinchi tomoni hech narsaga qodir bo'lmaydi), chunonchi Muso payg'ambar vaziri Horun bilan mukammal bo'lgan” . U buni kengroq tahlil qilish maqsadida tarixga murojaat etib ko'plab misollar keltiradi. Nizomulmulk fikricha: “Qaysi podshoh buyuk bo'lib, olamda hukmron va mashhur bo'lgan esa va qiyomatgacha nomi yaxshilik bilan tilga olinsa, bu yaxshi vazirlar orqali qo'lga kiritiladi” .

Hokimiyat sub'ekti – uning faol, yo'naltiruvchi kuchi. U alohida inson, sotsial guruh, kishilarning birligi, davlat institutlari yoki siyosiy partiyalar bo'lishi mumkin. Biroq, har qanday inson hokimiyat sub'ekti bo'lavermaydi. Deyarli har bir shaxs, individda qaysidir ma'noda hokimiyatga intilish ehtiyoji mavjud. Lekin bu ehtiyojni hamma vaqt ham ijobiy holat, faoliyat ko'rinishi sifatida baholash mumkin emas. Hokimiyatning xizmat lavozimlari taqsimotida buni to'g'ri baholay olish, xolisona yondoshish mexanizmlarini qo'llash kerak bo'ladi. Az-Zamaxshariy va Nizomulmulk siyosiy qarashlarida mazkur masalaga e'tibor qaratiladi. Hokimiyatga intiluvchilarning tegishli xizmat lavozimlarini egallashlari o'zlarining shaxsiy manfaat va maqsadlarini amalga oshirish uchun bo'lmasligini ta'minlash zarurligi uqtiliradi. Jumladan, Nizomulmulk yozadi: “Har bir omil va mutasarrifga fazli donish va kifoyatiga qarab

bitta vazifa ber. Agar birov ortiqcha amal (yo mansab) talab qilsa, uni rad et” . Az-Zamaxshariy ham hokimiyatni suiste’mol etib uni o’z manfaatlari yo’lida foydalanishni maqsad qilishdan qaytaradi. Bu jamiyat orasida ijtimoiy-siyosiy larzalarni keltirib chiqarishi hamda turli zamoniy va makoniy muammolarga sababchi bo’lishi mumkinligiga ishora qiladi. Davlatda turli muammolar va noroziliklarning paydo bo’lishi uning inqiroziga sabab bo’lishi mumkin. “Mansab ilinjida bo’lgan kimsalarning tomirlari kesilgandir, - deb yozadi u, - ular oladigan farmonlari esa bir-biriga zarba beruvchilardir” .

Az-Zamaxshariy va Nizomulmulk dunyoviy davlat qurish uni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish va hokimiyat resurslaridan to’g’ri foydalana olish imkoniyatlarini vujudga keltirish to’g’risida nazariy xulosalar berish bilan bir qatorda uni saqlab qolish usullari haqida ham o’z qarashlarini bayon etishgan. Az-Zamaxshariy davlat yaxlitligi, jamiyat tinchligi va farovonligini ta’min etishda, davlatga xavf soladigan fenomenlar bilan munosabatga kirishishda qattiqqo’llik qilishni va har qanday usul va vositalardan foydalanishni oqlaydi. U yozadi: “Ko’pincha vaqtida ishlatilgan hiylayu tadbirkorlik kучu quvvatdan g’olib kelur” . Biroq, Nizomulmulk az-Zamaxshariydan farqli tarzda mo’tadillikni saqlash tarafdori. U bu mo’tadillakni saqlash, davlatning o’rni va mavqeini uning yetakchisi bilan bog’liq deb tushunadi. “Podshoh dushmanlari bilan shunday urushsinki, - deb yozadi u, - yarashib sulh tuzishga imkon qolsin. Do’st-dushman bilan shunday munosabatda bo’lsinki, yaqin bo’lganda uzish va uzilganda yaqin bo’lish oson kechsin” .

Az-Zamaxshariy davlat tuzumi haqidagi qarashlarida, shubhasiz o’zining e’tiqodi jihatidan yondashadi. Islomiy e’tiqodi uning nazidadagi davlatni ham shunday – shariat ahkomlariga asosan bo’lishini talab qilardi: “Suv yo’llari irmoqlari bilan bo’lgani kabi shariatning to’g’ri qonun qoidalarini payg’ambar alayhissalomning ta’limotlari bilandir” .

Uning qarashlarida davlatni ushlab turadigan, uning davomiyligini ta’min etadigan narsa – bu davlatning idora tizimi, tuzuklari va tartiboti. Az-Zamaxshariy ana shu tuzuklar va tartibotlarni mustahkam ushlab turish tarafdori. Davlat qanchalik barqaror bo’lmasin, baribir unda qattiq siyosat yuritish tamoyillarini oldinga suradi. Biz bunday fikrlarni az-Zamaxshariyning “Nozik iboralar” kitobida uchratamiz. Jumladan u o’z g’oyasining tasdig’i uchun bu kitobda shunday deb yozadi. “Ot uchun har doim qamchi lozimdir. U garchand yelib - yuguradigan tulpor bo’lsa ham”.

Biz aynan ana shu jumlaning az-Zamaxshariy siyosiy qarashlarining qaymog’i desak, mubolag’a qilmagan bo’lamiz. Har bir allomaning mashhur hikmatli so’zi yoki iborasi borki, biz ularning nomini tilga olganimizda, beixtiyor o’sha hikmatli so’zni eslaymiz. Amir Temur haqida gap borganda, shaksiz uning “Haqiqat adolatdadir” degan jumlasini tilga olinadi. Bahouddin Naqshband esa o’zining tariqati dasturi hisoblanmish “Dil ba yoru dast ba kor” (“Diling Ollohda, qo’ling ishda bo’lsin”) iborasi bilan mashhur. She’riyat mulkining sultoni Navoiyni eslasak,

“G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish” matla’li ruboiysi tilimizga joriy bo‘ladi. Boburni ko‘z oldimizga keltirganimizda u “Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi” deyayotgandek tuyuladi. Endi, az-Zamaxshariy haqida so‘zlaganimizda “Ot uchun qamchi lozimdir. U garchand yelib yuguradigan tulpor bo‘lsa ham” degan hikmatli so‘zini eslab o‘tsak, o‘ylaymizki o‘rinli bo‘lar edi.

Mazkur hikmatli so‘z Amir Temur siyosatining ustuvor tamoyillaridan biriga aynan mos kelishligi qadimda Sharqda davlatchilik ishlari qattiqqo‘llik asosiga qurilganligini ko‘rsatadi. Amir Temur deydi: “Siyosat va insof bilan sipohiyalarim va raiyatni umid va qo‘rqinch orasida tutdim”.

Shu o‘rinda Az-Zamaxshariy siyosiy qarashlarining Ogahiy siyosiy qarashlariga ta’sirini va uning zamon talablaridan kelib chiqib takomillashtirilganini ko‘rishimiz mumkin. Ogahiy tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, xonlikdagi yirik tarixiy shaxslarga bag‘ishlab turli munosabat bilan qasidalar yozgan. Shunday qasidalardan biri “Qasidai nasihat” bo‘lib Feruzshohga bag‘ishlangan. Shoir o‘z nasihatlarida xonga saltanatni boshqarishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi, nasihat qiladi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo‘llarini belgilab beradi. Bu qasida masnaviy janrida yozilgan bo‘lib, shoirning siyosiy-ma’rifiy qarashlarini yorqin ifoda qiladi. Qasidada olamga qanchadan-qancha shahanshohlar kelib ketgani, ulardan nom-nishona qolmagani, barchalari “yo‘qlik mamlakatiga” ravona bo‘lgani aytilib, xonni bu qo‘hna tarixdan saboq olishga va o‘zidan keyin yaxshi nom qolishiga da’vat etadi. Ogahiy fikricha, har qanday davlat boshlig‘i hokimiyatni mustahkamlash uchun quyidagi ijobiy fazilatlariga ega bo‘lishi va unga amal qilishi lozim:

Kimki ushbu axloqiy fazilatlariga amal qilsa, uning davlatida intizom bo‘ladi, hokimiyat takomillashadi va mamlakat farovon bo‘ladi, deydi shoir. Ogahiy nafaqat malakatni boshqarishning ijobiy qoidalarini ko‘rsatib beradi, balki hukumat binosini qulatadigan, mamlakatni xonavayron qiladigan salbiy illatlarni ham zukkolik bilan ko‘rsatib beradi. Shoir nazarida, ular quyidagilardan iborat. Ogahiy mamlakatni xonavayron qiladigan salbiy illatlarni ham sanab o‘tgan:

Ogahiy Feruzshohning otasi Sayyid Muhammadxonga ham iltimosiga ko‘ra bir qasida yozib bergan edi. Unda shunday satrlar bor:

Ayo shohi hashamu qadr doro janob,
Falak gunbazin bil suv uzra hubob.
Binoi falakka bu bo‘lsa qaror,
Oning taxti johiga na e’tibor.
Bas, emdi raiyatga qil adlu dod,
Topay desang ikki jahonda murod.
Alo ey, bu qasr ichra qilg‘on makon,
Bu manzilni fahm etmagil jovidon.

Vafosizdurur dahr iqboli bil,
Baqosizdurur mulk ila moli bil.
Ko'ngil qo'ymag'il mulk bunyodig'a,
Yet albatta mazlumlar dodig'a .

Ushbu qasida Xiva xonlarining qarorgohi Ko'hna Arkning arzxonasidagi marmar o'ratoshga nasta'liq xati uslubida 1857 yilda o'yib yozilgan.

Bunday purhikmat baytlar Xiva xonligida olib borilgan o'ziga xos siyosatga ta'sir etmay qolmaydi, albatta. Shu bois Feruz Xiva xonligida "qirqetti yilu o'n besh kun" (Bayoniy) hokimiyatni boshqardi. Uning hukmronligi davrida mamlakatda ilm-fan, adabiyot va san'at, madaniy-ma'rifiy ishlarning rivoj topishi xonning homiyligi ostida olib borildi. Bayoniyning yozishicha, Feruzshoh haftada ikki marta: dushanba va juma kunlari olimlarni hamda san'atkorlarni Tozabog'da yig'ib suhbatlar uyushtirgan, kitobxonlik oqshomlari o'tkazgan. Saroydagi shunday ijodiy muhitning natijasi o'laroq, garchi xalq mahalliy boylar va rus bosqinchilari tomonidan ikki yoqlama ezilayotgan bo'lsada, xonlikda madaniy-ma'rifiy ishlarning rivoj topishida Ogahiyning beqiyos rolini haqli ravishda e'tirof etmoq kerak.

Az-Zamaxshariy o'z davrining siyosat olamidagi ko'zga ko'ringan arboblardan, hukmron doiralardan bilan ko'p muloqotda bo'ldi. Ular bilan birga yashadi, hamnafas bo'ldi. Ularning hayotlari bilan yaqindan tanishdi. U katta hayot tajribasiga ega bo'lgan olim edi. Keksayganida mana shu tajribalarining mahsuli sifatida "Navobig'u-l-Kalim" ("Nozik iboralar") asarini yozdi. Biz bu asarda hukmron doiralarga nisbatan aytgan fikrlarini uchratamiz. U deydi: "Podshohning eng yaqin kishisi, yaqinlarning ichidagi eng ulug'idir, xavf – xatar paytlarida ularga (xavf– xatarga) yaqinrog'idir" 1.

Bu fikr allomaning o'z davri podshoh va amaldorlarining boshiga tushgan ishlardan voqifligini qolaversa, islom tarixi va unda o'tgan xalifalar, amirlarning hayot tarzidan ham yaxshi xabardor ekanligini anglatadi. Buning xulosasi shundayki, agar xavf – xatardan uzoq bo'lay desang, podshohlardan uzoq yur, zero "gadoning dushmani gado bo'ladi".

Buyuk alloma Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy o'z zamonasining atoqli siyosat namoyondasi, tarixda o'zining yaxshi nomini qoldira bilgan, dongdor saljuqiylar vaziri Nizomulmulk bilan ham yaqin munosabatda bo'ldi. Uning davlat ishlarini boshqarish san'atidan, siyosiy sahnadagi nufuzidan, eng e'tiborlisi – davlat va hukumat ishlarini olib borishdagi o'rnidan bevosita va bilvosita xabardor bo'ldi. Uning qilgan va qilayotgan ishlarini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Hamda vazir sifatidagi faoliyatiga yuksak baho berib, unga qasidalar bag'ishladi. Az-Zamaxshariy vazirning o'rnini hukumat ishlariga qay darajada daxldor ekanligini, davlatning nufuzini oshirish yoki tushirishda, podshoh rejalarini amalga oshirishda uning faoliyati qanday o'rin tutishini tushunib yetdi. Boshqa mamlakatlardagi vazirlar va ularning ishlash tamoyillarini o'rgandi va

qiyosiy tahlil etib, chog'ishtirdi. Bularning natijasi o'laroq, "Navobig'u-l-Kalim" ("Nozik iboralar") asarida shunday satrlarni muhrladi: "Har bir vazir qaychi misolidir (agar qaychining bir tayanch tomoni bo'lmasa, ikkinchi tomoni hech narsaga qodir bo'lmaydi), chunonchi Muso payg'ambar vaziri Horun bilan mukammal bo'lgan" 2.

Az-Zamaxshariy bu asarida jamiyatda bo'ladigan turli nizolar, davlatlar o'rtasida sodir bo'lib turadigan qonli urushlar to'g'risida ham o'z qarashlarini bayon etgan. Jumladan u bu to'g'rida shunday yozadi: "Qancha marta qirg'in-barot, qonli jangu-jadallar paytida halokatlar bo'ladi, qancha martalab usti yupunu yalang'och kimsalar shiddatli jang paytlarida haddan ortiq holda o'z qalblarini ocharlar; ya'ni, jangu – jadal paytida asil mardu – maydonlar o'zini hatto qurbon qiladi, ko'p vaqtlar qurol yarog'sizu, kiyim kechaksiz mardonavor kishilar yakdillik ko'rsatadilar. Xo'sh, shuncha talofat, kulfat va halokatlarga sabab bo'luvchi urush insoniyatga nima beradi? Shubhasiz: "Nizo va nifoq mavjud joyda noxushlik bo'lar, qayg'u – hasratu, faqirlikka tushilur" 2. Amir Temur ham har vaqt urushdan qochdi, imkon darajasida barcha muhim vazifalarni tinch yo'l bilan hal qilishga intildi. Negaki urush hamma vaqt az-Zamaxshariy ta'kidlaganidek, ko'ngilsizliklarga va katta moliyaviy chiqimga sabab bo'lardi. Buni yaxshi tushungan Temur o'z kitobida shunday yozadi: "Qaysi ishni chorayu tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim".

Az-Zamaxshariy dushmanlardan uzoq bo'lishga, qilayotgan ishidan dushmani zinhor xabardor qilmaslikka chaqiradi: "Sening qilayotgan ishlaringdan dushmaning zinhor ogoh bo'lishi, senga ilon chaqqanidan ko'ra ham zararli va mashaqqatli bo'ladi".

Mabodo dushman bilan orani ochiq qilmoqchi bo'lsangchi, unda: "Nizo qilish haqida senga fatvo bersalar-da, tajribadan o'tib sinalgan kishi bilan nizo, bahs va munozara qilishdan saqlan". Eng qulayi: "Ko'pincha vaqtida ishlatilgan hiylayu tadbirkorlik kuchu quvvatdan g'olib kelur. Arslon nafaqat chuqur qazish bilan ovlanib qolmay, ko'pincha u hiyla bilan ham ovlanadi (qo'lga tushiriladi)". Xuddi shu fikrning to'g'riligini biz Amir Temurning harbiy taktikasida ham ko'ramiz. U bir necha bor Markaziy Osiyo xalqlarini asoratga solmoqchi bo'lgan dushmanlar ustidan az-Zamaxshariy qo'llab-quvvatlagan taktikani amalda qo'llab g'alabaga erishdi.

Az-Zamaxshariy turli diniy, siyosiy, madaniy, irqiy ixtiloflar natijasida vujudga keladigan urushlar va ularning kishilik jamiyati uchun olib keladigan oqibatlari haqida shunday xulosaga keladi: "Jangu jadal ahlari goh shodligu, goh xafalikda bo'ladilar".

"Atvoq-uz-zahab" ("Oltin shodalar") mazmunan o'z davrining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy hayotini o'zida aks ettirgan asardir. Uning o'zbek tilida tarjimasi yo'qligi bois "Ko'zgu" haftanomasining 1995 yil 2, 9 noyabr sonlarida Ash-Shayx Muhammad Abu Zahroning "Mahmud az-Zamaxshariy" nomli U.Uvatov tarjimasida bosilib chiqqan maqolasida keltirilgan ayrim parchalardan foydalanib, uning qarashlarini yoritishga harakat qildik.

Az-Zamaxshariyning mutafakkir sifatidagi siyosiy qarashlari mo'tadillikka asoslangan. Uning hayotdagi asosiy shiori – "Vaziyatga qarab ish tutish". Biz buni quyidagi misolda yaqqol ko'ramiz: Dunyo charxpalakdir (aylanuvchan), - deydi u – odamlarning har birining fe'li atvori har xildir. Har doim bo'ladigan kor holu hodisalarga ko'ra (kiyim kiygin); har bir toifaning imkoniga qarab ular bilan mujolasa qilgin; har doim ham kunlar sen istagandek (yaxshi) bo'lavermaydi; har doim ham odamlar sening istagingga rozi bo'lavermaydilar. Az-Zamaxshariyning birgina mana shu fikri orqali uning hayotidagi o'zigagina xos bo'lgan yashash tamoyillarini anglab olishimiz mumkin.

"Navobig'-ul-Kalim" ("Nozik iboralar") da bayon etgan inqirozga yuz tutadigan, omadsiz yurt haqidagi fikrlariga hamohang yozadi: Omadsiz yurt haqida senga gapirib ham o'tirmayman, - deydi u – chunki u yurtda zolim hokim tasarruf yuritadi. Adolatsiz yurtdan ham uzoqda bo'lg'in, garchand shu yurt egasidan (sayyidi) ko'ra ham aziz va behisob boyligu farzanddan bahramand ahlidan bo'lsangda. Az-Zamaxshariy olimlarga, ilm ahliga yetarli e'tibor yo'qligidan ham noliydi. Uning fikricha: «Nopok ulamolar shariatdagi o'z vojibotlarini jamlab, tartib (tadvin) etganlari bilan keyin ularni nokas amirlar ixtiyoriga topshirib, bepisand qildilar. Ilmiy masalalarni qalbida hifz etgan, ular iboralarini zehnida tuygan, saboqlarida ko'plab ilm toliblari gir atrofini o'rab olgan ulamolarga qimor va gardkam (maysir) o'yinlaridagi kabi g'irromlik bilan pand beradilar».

Uning "Divan-ush-shi'r" ("She'riy devon") – she'riy to'plamida zamonasining atoqli siyosat arboblari bag'ishlab yozilgan ko'plab qasidaları mavjud. Bu qasidaların mavzusi turli xil. Biz ularning mavzu va ma'nosiga ko'ra to'rtga bo'lishimiz mumkin:

- 1) Madh
- 2) Shikoyat
- 3) Iltimos
- 4) Do'stlik

Abu-l-Qosim az-Zamaxshariy qaysi yurtda bo'lmasin o'sha yurtning siyosiy arboblari, hukmdorlari bilan yaqin munosabatda bo'lishga intildi. Ular bilan imkon qadar do'stlik rishtalarini bog'lashga harakat qildi. Bu az-Zamaxshariyning o'z davri siyosiy tizimida manfaatlar muvozanatini to'g'ri baholay olganligini ko'rsatadi. Haqiqatda az-Zamaxshariy o'ziga baho berishda adashmagan edi: "Ana Ka'bat-ul-adab fi Xvarazm" ("Men Xorazmda adiblar uchun Ka'baman"). Va uning qasidaları mazkur manfaatlar doirasida vujudga keldi.

Anushervoni Odilning muallimi uni bolaligida gunohi bo'lmasa-da uni urib azoblar, ba'zan qo'liga muzni berib, qo'li muzlab qolib, muz tushib ketgunicha ushlatib qo'yar edi. Anushervon: "Uni podshoh bo'lgan kunimoq o'ldiraman", der edi. Ulg'ayib, podshoh bo'lganida muallim qochib ketdi. Uni omon qoldirishga va'da berganidan so'ng keldi. Anushervon undan nega o'ziga bunchalar zulm qilganini so'radi. U aytdi: "Zulm ko'rgan mazlumning zolimga adovati qanchalik

ekanligini bilish uchun qilgandim”. “Anushervon dedi: “Yaxshi, bunisi tushunarli, biroq nega ba’zan muz bilan azoblarding?”. Muallim dedi: “Hali buni ham tushunasan”. Qattiq sovuq kunlardan birida, tong payti izg’irinda Anushervon jangga kirdi. Dushman tomonning qo’llari sovuqda muzlab, kamonning ipini tortolmay qoldilar. Anushervon ularni yengib, g’alaba qozondi. Shunda muallimining murodini tushundi .

To’rtta podshoh bir yerda jamlanib qolishibdi. Fors shahanshohi shunday debdi: “Men gapirmagan gapimga pushaymon bo’lmadim, lekin aytgan gapimga pushaymon yeganman”. Rum qaysari esa bunday debdi: “Mening aytmagan gapim hamisha aytgan gapimga qaraganda qudratliroq bo’lgan”. Xitoy imperatori aytibdi: “Men gapirmagan gapimning imperatoriman, gapirgan gapim esa menga imperator”. Hind shohi esa bunday debdi: “Men gapirgani odamlarga zarar beradigan, gapirmagani foyda ham bermaydigan kishiga ajablanaman” .

Xulosa. Mutafakkirlar shunday yozadi, Kimki munkar - Olloh, qaytargan ishlardan uzoqda yashab o’tsa, uning sakarot - jonchikar onlari oson va yengil kuchadi. Jazo kunining yakkayu yagona Podshohi o’z farishtalari bilan go’zal va ko’rkam ne’matlarni, ko’rib ko’z to’yamaydigan taxtlarni suyunchilagan holda uni kutib oladi. Yaxshi ishlardan ko’zlari yashnab, “bay-bay” deb tebrangan, yomon ishlardan yuzlari burishib, jirkangan kishiga jannat bo’lsin! U shunday kishiki, yomonlarni xorlash va ular ekan zulm daraxtini qirqish yoyinki yaxshi kishilarga yordam berish va ularning so’zlarini tug’ kabi tikib qo’yish yo’lidagi Ollohning buyrug’ini so’zsiz bajaradi.

Mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari Qur’on va Hadislardagi gumanistik mohiyatga asoslangan bo’lib, jamiyatni insonparvarlashtirishni nazarda tutadi;

Mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari Shoh va fuqaro o’rtasidagi, hokimiyat va xalq o’rtasidagi nizolarni bartaraf etishga, uyg’unlikni ta’minlashga qaratilgandir;

Mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari o’zidan keyingi mutafakkirlar dunyoqarashiga ijobiy ta’sir o’tkazdi va jamiyatning rivojiga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. “Рабиъ ул-аброп ва нусусул ахбор” (“Яхшилар баҳори ва хабарлар matnlari”). J. 3. Bag’dod: 1975. – B. 219.
2. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamashariy. Nozik iboralar. – T.: Kamalak, 1992. – B. 77.
3. Temur tuzuklari.- T.: G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1996. – B. 86.
4. Ziyodulla Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiy- huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to’ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. – B. 71-72.
5. I.Mo’minov. Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni va roli. - T.: FAN, 1993. – B. 3.
6. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. – Т.: Адолат, 1997. – Б. 168.

7. Огоҳий абадияти. Ал-Хоразмий номли Урганч давлат университети. Хоразм Маъмун академияси. – Т.: Ўзбекистон. 1999. – Б. 74.
8. Огаҳий. Асарлар, VI жилдлик, 2 жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 373.
9. Сафарбоев М. Муҳаммад Ризо Огаҳийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари.//Қаранг: Ўзбек фалсафаси тарихи (III-жилд).Тошкент: “Муҳаррир” нашриёти, 2020. – Б. 115-116.